

Sultanov X.E.

AKADEMIK RANGTASVIR

darslik



**7011201 – Tasviriy san’at va amaliy bezak san’ati mutaxassisligi
bo’yicha magistraturaga ta’lim yo’nalishi talabalari uchun mo’ljallangan**

TOSHKENT-2023

Annotatsiya

“Akademik rangtasvir” nomlangan darslik pedagogika Oliy ta’lim muassasalarining 70111201 – Tasviriy san’at va amaliy bezak san’ati mutaxassisligi bo’yicha magistratura ta’lim yo’nalishi 1-2 - kurs talabalari uchun tuzilgan o’quv dasturi asosida yozilgan. Ushbu darslik magistrantlarning akademik rangtasvir ishlash kursi bo’yicha nazariy va amaliy bilimlarga ega bo’lishiga ko’maklashish maqsadida yaratilgan.

Darslikda berilgan ko’rsatmalardan foydalanish uchun o’quv vazifalarga qo’yiladigan talablar batafsil ifodalangan, akademik rangtasvir bo’yicha o’quv dasturini sinchiklab o’rganish bilan birga olib borilganda nisbatan yaxshi natijalarga erishish mumkin. Ayniqsa bu mustaqil vazifalar bajarishda juda qo’l keladi.

Darslikda rangtasvirga tegishli Yevropalik mualliflar kitoblaridagi materiallardan unumli foydalanilgan hamda xorijiy rangtasvir ustalari tajribasi bo’yicha vazifalar kiritilgan.

Аннотация

Учебник «Академическая живопись» написан на основе образовательной программы для студентов 1-2 курсов педагогического вуза 70111201 - специальность изобразительное и декоративно-прикладное искусство. Учебник призван помочь студентам получить теоретические и практические знания по курсу академической живописи.

Чтобы использовать инструкции, данные в учебнике, требования к учебным заданиям детализированы, и относительно хорошие результаты могут быть достигнуты при их выполнении в сочетании с тщательным изучением академической программы живописи. Это особенно полезно при выполнении самостоятельных задач.

В учебнике хорошо использованы материалы книг европейских авторов, посвященные живописи, и включены задания, основанные на опыте зарубежных живописцев.

Annotation

The textbook "Academic Painting" was written on the basis of an educational program for students of 1-2 courses of a pedagogical university 70111201 - specialty fine and decorative arts. The textbook is designed to help students gain theoretical and practical knowledge in the course of academic painting.

In order to use the instructions given in the textbook, the study requirements are detailed and relatively good results can be achieved when combined with a thorough study of the academic painting curriculum. This is especially useful when performing independent tasks.

The textbook makes good use of materials from books by European authors on painting, and includes assignments based on the experience of foreign painters.

MUNDARIJA

KIRISH	4
Akademik rangtasvir fanining kelib chiqishining qisqacha tarixi.....	6
MASHHUR RASSOMLARNING RANGTASVIR ASARLARINI O‘RGANISH VA TAHLIL QILISH.....	10
Rembrandtning “Adashgan o‘g‘ilning qaytishi” asarining tahlili.....	10
MILLIY KIYIMDAGI AYOL QIYOFASINING AKADEMIK RANGTASVIRI	17
KASBGA OID MAVZULI KOMPOZITSIYA ISHLASH OID MAVZULI KOMPOZITSIYA ISHLASH.....	28
AKADEMIK RANGTASVIRDA G‘OYA VA KOMPOZITSIYA MASALALARI	35
“Iso Masihning xalqqa ko‘rinishi” asari (A.Ivanov).....	35
J. Umarbekovning “Inson tafakkuri” asari tahlili.	37
Tarixiy janrida ishlangan M.Nabiev, A.Aliqulov asarlarining tahlili.	42
YALANG‘OCH INSON QOMATI (BUTUN GAVDASI)NI TASVIRLASH	50
PLENER (OCHIQ HAVODA)DA TANIQLI RASSOMLAR AN‘ANALARI ASOSIDA PORTRET ISHLASH.	64
ATAMALAR.....	71
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	90

KIRISH

Dunyo tamaddunining bugungi bosqichini globallashuv jarayonlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Globallashuv, ta'bir joiz bo'lsa, bugungi kunda mamlakatlarni rivojlantirishning mohiyati va mazmuniga, strategiyasi va tamoyillariga, yondashuv va uslublariga birday ta'sirini o'tkazayotgan kuch sifatida namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunga kelib jamiyat rivojlanishining kompleks xarakterda sodir bo'lishi taraqqiyotning ijobiy jihatlari bilan birga uning salbiy oqibatlarini ham yuzaga chiqarmoqda-ki, bu insoniyat oldiga kutilmagan yangi muammolarni ko'ndalang qo'ymoqda. Globallashuvning mohiyatini va xususiyatlarini chuqur o'rganish unga moslashish, yo'nalishlarini kerakli tarzda o'zgartirish imkoniyatini yaratadi. Bundan ko'rinib turibdiki, globallashuv jarayonidan ijobiy va ijodiy foydalanishning usul va vositalarini, mexanizmlarini ilmiy asosda ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Mana shunday yuksak taraqqiyot davrida Respublikamizda har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalash va ta'lim berish hozirgi paytda uzluksiz ta'lim tizimining asosiy vazifasi sifatida kun tartibiga qo'yilgan. Shuning uchun ham, mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ta'lim, fan va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash¹ oliy ta'limni rivojlantirishning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Shaxsni tarbiyalashdagi asosiy tizimlardan biri bu ijodiy jarayon bo'lib, u yoshlarning tasavvuri, ijodiy tafakkuri, hissiy idrok etish qobiliyatlarining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ijodkorlikka yo'naltirish, talabalardagi mustaqil fikrlash, vazifani bajarishda yangi yechimlarni topish malakasining oshishi, voqeliklar, hodisalarning asl mohiyatini tushunishga bo'lgan qiziqishining ortishiga sabab bo'ladi. Shu orqali ularda intellektual rivojlanish, o'ziga ishonch, qat'iyatlilik kabi xislatlar shakllanib boradi.

Talabalarining turli faoliyat jarayonidagi nostandart vaziyatlarda har xil vazifalarning yechimini topishda ijodiy imkoniyatlari rivojlanadi. Yuzaga kelgan muammoli vaziyat har bir inson uchun tasviriy san'atda ob'ektiv (xolis) yoki sub'ektiv (noxolis) aks etishi mumkin bo'lgan qat'iy va aniq qarorlar qabul qilishni talab qiladi. Bu ayniqsa, pedagog-rassomlarning mutaxassisligi bo'yicha, shuningdek kasbiy faoliyatida juda ko'p kuzatiladigan holat. Chunki ular ham ijodiy yo'nalishda, ham pedagogik, ilmiy-tadqiqot yo'nalishida o'z faoliyatlarini to'g'ri qura olishlari kerak bo'ladi. Shundan kelib chiqib, magistratura talabalarining yuqori saviyada ilmiy izlanishlar olib borish, pedagogik faoliyat yuritish, boshqaruv, tanqidiy fikrlash va tizimli tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi uchun mazkur ta'lim bosqichi o'quv reja va dasturlarini muntazam

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019-йил 8-октябрдаги ПФ-5847-сон Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030-йилгача ривожлантириш концепсияси // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020-y., 06/20/5987/0521-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.11.2021-y., 06/21/3/1037-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son.

takomillashtirib borish² oliy ta'lim muassasalari uchun asosiy vazifa qilib belgilangan.

Ushbu darslik mazmuni ham yuqorida qo'yilgan talablar asosida shakllantirilgan bo'lib, pedagogika Oliy ta'lim muassasalarining 70111201-Tasviriy san'at va Amaliy bezak san'ati mutaxassisligi bo'yicha magistraturaga ta'lim yo'nalishi 1 – kurs talabalari uchun mo'ljallangan. Unda akademik rangtasvir fanining kelib chiqish tarixi, Yevropa va milliy tasviriy san'atiga oid mashhur rassomlarning rangtasvir asarlarni o'rganish va tahlil qilish, rangtasvir ishlashning spesifik xususiyatlari, akademik rangtasvirda g'oya va kompozitsiya masalalariga oid nazariy ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Shuningdek milliy kiyimdagi ayol qomatining akademik rangtasviri, kasbga oid mavzuli kompozitsiya, yalang'och inson qomati (butun gavdasi)ni tasvirlash, Plener (ochiq havoda)da taniqli rassomlar an'analari asosida portret kompozitsiyasi bajarish haqida tavsiyalar berilgan. Akademik rangtasvir - o'quv fani sifatida "Tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati" yo'nalishi mutaxassislik fanlari orasida asosiy o'rinni egallaydi.

Akademik rangtasvir nafaqat san'at, balki shu bilan birga shakllar orqali tafakkur qilish, konstruktiv asosni tushunishga o'rgatadigan fandır. Shuning uchun, ham bu fan kishining ma'naviy dunyosini boyitish va estetik tarbiyalash tizimida muhim ahamiyatga ega. Rangtasvir asarlari tomashabinga olamni chiziqlar va ranglar orqali ko'rish, hissiy jozibadorlik, ijodiy asarlarni o'qish imkonini beradi. Akademik rangtasvir mashg'ulotlari bo'yicha berilgan har bir mavzu o'zining alohida maqsadi, vazifalari va ishlash usullari va qo'yiladigan talablari bilan farqlanadi. Rangtasvir kompozitsiyasi ishlash davomida talabalar kasbiy, ijodiy va texnologik xarakterdagi bir qator o'quv vazifalarini hal qilishlariga to'g'ri keladi.

Plenerda portret ishlash mashg'ulotlari talabaning atrof-borliqdagi shakl va fazoviylikni his qilishi, uni materialda mustaqil ifodalashni o'rganishiga yordam beradi. Uning vazifasi inson qomati rangtasvirini atrof-borliq bilan uyg'unlikda tizimli ravishda tasvirlashga o'rgatish, tasviriy san'at ashyolaridan va rangtasvir vositalaridan foydalanish mahoratini oshirishdan iborat. Bu fanni o'zlashtirish orqali magistrantlarda bakalavr ta'lim jarayonida rangtasvir fanidan o'rgangan bilimlarini yanada takomillashtirish, rangtasvir asarlarini kompozitsion, psixologik va tarbiyaviy jihatdan tahlil qila bilish, mustaqil rangtasvir kompozitsiyasi yarata olish ko'nikmalari rivojlantiriladi. Shu bilan birga ta'limning avvalgi bosqichida nusxa ko'chirish va tasviriy san'at texnologiyasi, rangshunoslik, kompozitsiya, plastik anatomiya, psixologiya va boshqa fanlardan egallagan bilimlaridan amaliyotda qo'llashni o'rgatishga hamda fanlararo uzviy aloqalarni ta'minlashga xizmat qiladi. Ularning ijodiy qobiliyatlari har bir talaba shaxsining ijodiy faoliyatga tegishli individual fazilatlarini rivojlantiradi. Talabani faollashtiradi,

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019-йил 8-октябрдаги ПФ-5847-сон Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030-йилгача ривожлантириш концепсияси // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020-y., 06/20/5987/0521-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.11.2021-y., 06/21/3/1037-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son.